

O'QITUVCHI - O'QUVCHI MUNOSABATLARI TA'LIM-TARBIYA SAMARADORLIGINING ASOSIY ME'ZONI SIFATIDA

Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)

Temirova Xosiyat Umbar qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchi - o'qituvchi munosabatlarning o'ziga xosligi haqida haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, pedagogik jarayon, o'qituvchi- o'quvchi munosabatlari, o'smir, psixologik bilim.

O'zbekiston mustaqillikka erishib huquqiy, demokratik jamiyat qurayotgan davrda mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarida qator islohotlar amalga oshirildi. Zero, jamiyatning buguni va kelajagi, uning madaniy, ma'rifiy va ma'naviy salohiyati ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Shuning uchun ham respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng eng ahamiyatli va ustuvor vazifa sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biri - ta'lim sohasini isloh qilish masalasi bo'ldi. Bu boradagi asosiy talablardan biri - kadrlar tayyorlashda sifat darajasini yaxshilashdir.

Hozirgi paytda jamiyatning o'quv maskani oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormokda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liqdir. O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "...zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak".

Zamonaviy o'qituvchi psixolog bo'lmasligi mumkin emas. U o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarur.

Abu Nasr Forobiy o'qituvchi shaxsining psixologik xususiyatlari masalasiga alohida e'tibor qaratar ekan: "O'qituvchi aql-farosatga, chiroyli nutqga ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur", - deb ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sino ham bu masalada o'z qarashlarini bildirgan, uning fikricha: "...O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, ahloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim".

Darhaqiqat ta'lim - tarbiya tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchilarga bog'liq. Shunday ekan, bilimli, atroflicha fikrlay oladigan, dunyoqarashi keng, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, izlanuvchan, ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o'zi talab etmoqda. Zamonaviy o'quv maskani o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi – sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars mashg'ulotlarida, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari vaqtlarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidir.

Ta'lim - tarbiya ishlarining muvaffaqiyati esa ko'p jihatdan o'qituvchi - o'quvchi munosabatlariga bog'liq. Ayrim hollarda o'qituvchilarda psixologik bilim va malakalarni yetishmasligi natijasida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari jiddiy tus olib, keskinlashib bormoqda, ayniqsa muloqot malakalaridan to'g'ri foydalanmaslik, muloqot jarayonida bir-birini tushunmaslik turli nizoli vaziyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Bunday ziddiyatlar asosan o'smirlar davrida yuzaga keladi.

Ma'lumki, o'smirlik davri bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib boshqa yosh davrlaridan o'zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu davrda bolaning jismoniy o'sishida fiziologik o'zgarishlar sodir bo'lishi bilan birga o'smirning psixologiyasida ham katta o'zgarishlar kuzatiladi. Buning natijasida o'smir o'zining katta bo'lganini va kattalarga o'xshashligini his qiladi. Uning o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan bo'lgan munosabatlari butunlay o'zgacha xarakter kashf etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi qaytadan shakllanadi, o'z-o'zini anglashi, baholashi, qadriyatlari o'zgaradi.

O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatlarda o'quvchi bilan o'qituvchining muloqotida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. O'qituvchining yangi mavzuni batafsil tushuntirishi o'smirni zeriktiradi. Ilgari o'quv materialini o'qib yodlab olishga odatlangan bola endi zarur o'rinlarni mantiqiy xotira va tafakkurga suyanagan holda o'zlashtirishga harakat qiladi. Oldinlari o'qituvchini har bir so'zini o'zi uchun qonun deb bilgan, uning hamma aytgan topshiriqlarini bajarishga odatlangan, uni hammadan aqlli deb bilgan o'quvchi endi o'qituvchiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'la boshlaydi. Oldinlari odobli, intizomli bo'lgan bola kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. O'qituvchining, umuman o'zidan kattalarning fikrlariga qarshi chiqishga harakat qiladi, ularga e'tiroz bildiradi, ular bilan tortishib o'z fikrini (garchi nohaq bo'lsa-da) isbotlamoqchi bo'ladi. Ba'zi hollarda esa o'qituvchilarning gaplaridan, ishlaridan xato va kamchiliklar axtara boshlaydi. Bu esa ko'pincha o'qituvchi va o'smir o'rtasida tushunmovchilik, kelishmovchiliklarga sabab bo'ladi.

O'smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli u o'qituvchining qayg'urishi, koyishiga qaramay o'zining fikrini o'tkazishga, o'z bilganidan qolmaslikka harakat qiladi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchilarni qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'quvchiga munosabatini o'zgartiradi.

Shunday qilib o'smirlik davrida shaxsning turli sifatleri tarkib topadi, yangi psixologik xususiyatlar vujudga keladi O'qituvchidan o'smirlarga shu xususiyatlarga mos munosabatla bo'lish talab etiladi. Pedagogning vazifasi mohirlik bilan o'smirlarda namoyon bo'ladigan noto'g'ri qarashlarni yengish, ularning adashishlariga yo'l qo'ymaslikdan iborat. O'smirlar bilan munosabatda qat'iy ohang bilan buyruq bermaslik, so'zsiz bajarishni talab qiladigan ko'rsatmalar va talablar qo'ymaslik zarur. U bilan gaplashganda ishonch, maslahat yoki iltimos ohangida murojaat qilish kerak.

Ayrim tajribasiz o'qituvchilarning eng katta xatolari shundan iboratki, ular doimo o'smir yo'l qo'ygan xatolarini va muvaffaqiyatsizliklarini ro'kach qilib uni yuziga soladilar. O'qituvchilarning o'smirni ko'pchilik oldida tanqid qilishi, uning xatolarini yuziga solishi, qisqasi izzat-nafsiga tegishi o'smir ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa uning xulqida turli kamchiliklarning paydo bo'lishiga, odamovilik, qaysarlik, hech kim bilan maslahatlashmay ish qilish, murosasizlik kabi salbiy sifatlarni shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar o'smirlar bilan muloqot jarayonida bu xususiyatlarni albatta hisobga olishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Зимняя И.А. Педагогическая психология: Учеб. Пособие. – Ростов : Изд-во «Феникс», 1997. – 480 с.
2. Ғозиев Э. Онтогенез психологияси. – Т.:Ношир, 2010. - Б.360.
3. С.Ж.Жалилова. Ёш даврлари психологияси. Т.: ТДПУ, 2016. –Б.111-112.
4. З.Т. Нишонава, Н.Г.Камилова, Д.У.Абдуллаева. Ривожланиш психологияси. Педагогик психология. Т.:“Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2018. - 37,5 б.т.
5. З.Т. Нишонава, Н.Г.Камилова, Д.У.Абдуллаева. Тараққиёт психологияси ва дифференциал психология. Т.: “Инновация – Зиё”, 2020. - 26.5 б.т
6. Д.У.Абдуллаева. Сушности закономерности процесса социально-психологического обеспечения деятельности педагога. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. Журнал научных публикаций № 05. 2016 г. – С. 64 -66.
7. D.U.Abdullaeva. Social factors affecting child educftion prychological factors. Procttdings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. Texas, USA. December 2022. P.154-156.